

## **BO'LAJAK PEDAGOGLARDA O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI**

**Berdaliyeva Sevara Damirovna**

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti 1- kurs magistranti

Email: [sevaraberdialieva243@gmail.com](mailto:sevaraberdialieva243@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda o'zini- o'zi boshqarish madaniyatini shakllantirish mexanizmi, unda amalga oshirish lozim bo'lgan jarayonlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, usullari, metodlari xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zini-o'zi boshqarish, tafakkur, g'oya, fikr, jarayon, pedagog, nutq, ichki tuyg'u, iroda, diqqat, mnemik jarayonlar.

### **SYSTEM FOR FORMING THE CULTURE OF SELF-MANAGEMENT IN FUTURE EDUCATORS**

#### **ABSTRACT**

This article talks about the mechanism of formation of self-management culture among future pedagogues, social-psychological aspects, methods, methods of the processes that should be implemented in it.

**Key words:** Self-management, thinking, idea, thought, process, pedagogue, speech, work feeling, will, attention, mnemonic processes.

#### **KIRISH**

Pedagoglik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq deb hisoblanib, e'zozlab keltingan kasbdir.

Nasiriddin Tusiy o'zining "Pedagoglarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "...Pedagog munozaralarni olib borishni, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot kilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'rilingiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... Pedagog nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida pedagogning o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin..." [1]"

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Pedagog tomonidan tashkil etilgan o'quv jarayonida subyektning ta'lim olishi uning o'ziga xosligi va xarakterida namoyon bo'ladi, bu uning o'quv usuliga ta'sir ko'rsatadi. Shakllangan individual o'quv usullari sxematik ravishda ikki qutb bilan ko'rsatilishi mumkin: "ijobiy" – "salbiy". Quyida keltirilgan jadval o'quv jarayonida bunday usullarni ko'rsatib beradi. Pedagog dars jarayonida buni inobatga olgan holda yondoshishi maqsadga muvofiqdir.

### **1-jadval**

#### **Ta'lim jarayonida bolalarning individual farqi (G.Klaus bo'yicha)**

Taqqoslash parametri	Ijobiy tur	Salbiy tur
<b>Tezlik</b>	Tez, oson, qiyinchiliksiz. Qat'iy, vaqt bo'yicha mustahkam, osonlik bilan qayta o'qiladi, moslashuvga ega	Sekin, qiyinchilik, zo'riqish, og'irlilik bilan, yuzaki, birzumlik, tezda unutadi, qiyinchilik bilan qayta o'qydi. Rigidlik, qotib qolish bilan xarakterlanadi.
<b>Sidqidillik</b>	Vijdonan, saranjomlik bilan, to'liq va asoslangan	Sovuqqonlik, palapartish, o'lda-jo'lida, yuzaki
<b>Motivatsiya</b>	Sidqidillik, o'z ixtiyori, o'z tashabbusi bilan harakat qiladi. Faol jon-jahdi bilan kirishib, bor kuchini jalb qiladi.	Zo'rma-zo'raki, majburan, bosim ostida, harakatsizlik, loqaydlik, dangasalik bilan, qiziqishsiz
<b>Ish-harakatining yo'naltirilishi</b>	Mustaqil, ajralgan holda, birovga bog'liq bo'lmasdan. Rejalangan, maqsadga yo'nalgan. Doimo qat'iyat bilan.	Mustaqil emas, taqlid qilib, maqsadsiz, rejasiz, pala-partish, onda-sonda, qat'iyatsiz.
<b>Kognitiv tashkil etish</b>	Tushunish bilan, anglangan, yo'nalgan, natijalarни anglagan holda, ratsional, iqtisod qilgan holatda.	Tushunmasdan, shunchaki, xato usul bo'yicha. Tayyorlanmasdan, to'satdan, ratsional bo'limgan holda, kam foydali.
<b>Umumiy baho</b>	Yaxshi	Yomon

Bo'lajak pedagoglarning oliv o'quv yurtida olgan psixologik bilimlari ikki unchalik yoqimli bo'lмаган xossaga ega[7]. Ular, birinchidan, pedagogga amaliyotda zarur bo'lган barcha bilimlarni o'z ichiga qamrab olmagan, bunga sabab pedagogik oliv o'quv yurtlarida psixologik fanlarni o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari hajmining chegaralanganligidir. Ikkinchidan, bu olingan bilimlar tezda eskirib qoladi va hech bo'lмаганда besh yilda bir marta yangilab turishni talab etadi, buni o'z-o'ziga ta'lim berish yoki malaka oshirishda amalga oshirsa bo'ladi.

Pedagogning psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi deyilganda, uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishini nazarda tutadi, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, shuningdek, boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyat, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya.

Pedagogning amaliy faoliyatida psixologik ma'lumotlar olishi mumkin bo'lган adabiyotlar ro'yxati yetarli darajada salmoqlidir. Holbuki, pedagogga muntazam ravishda ilmiy kitoblarni va jurnallarni o'qishga hojat yo'q, asosiy psixologik bilimlar jamlangan holda keltirilgan, pedagogik faoliyat uchun foydali bo'lган bo'limlarga murojat qilishning o'zi yetarlidir.

Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat – bu o'z- o'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq- atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir.

O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: Sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq, shuningdek shaxs xislatlari – xulq atvori, emotsiyonal holati, vaziyatga munosabati. Yuqorida qayd etib o'tilgan psixik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyg'ulari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ichki tuyg'u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo'lib xizmat qiladi, iroda bo'lsa xatti - harakatlar quvvati va yo'nalishlarini ta'minlaydi.

Qabul qilish o'z- o'zidan boshqaruvni aniq qabul qilish vazifalarini qo'yadi – obrazni tuzish, qo'yilgan savollarga – nimani kuzatish kerak? nima uchun kuzatish? qanday qilib kuzatish? – kabi aniq javob topish kerak. Kuzatuvni boshlashdan avval biz o'zimiz uchun bu savollarga javob berishimiz lozim bo'ladi.

Murakkab pedagogik sharoitlarda (vaziyatda) bunday savollarga aniq javob topishni iloji bo'lmaydi, bu vaziyatda aniq javob topish uchun bir muncha aqliy va jismoniy kuch sarf qilishga to'g'ri keladi. Bunday savollarni avvaldan o'ylab ko'rish va ularga amal qilishni talab qiladi, natijada o'z- o'zini boshqarishni nazarda tutadi [6].

Diqqat- e'tiborni boshqarish bir muncha boshqa narsalarga asoslanadi. Ixtiyoriy bo'lмаган diqqat- e'tiborni boshqarish ular bilan bog'liq bo'lган holatlar, ya'ni organizmning psixofiziologik holatlarini boshqarish orqali bevosita amalga oshirish mumkin. Charchoq oqibatida ixtiyoriy bo'lмаган diqqat-e'tibor yomon boshqariladigan bo'lib qoladi. Xuddi shunday holat kasallik davrida, haddan tashqari emotSIONAL junbushga kelgan holatda, affekt yoki stress holatlarida ro'y beradi. Bir muncha ta'sir qiladigan vositalar – dam olish, davolash, psixofizik autotrening bu tarzdagi diqqatni boshqarishda yaxshi samara beradi.

Ixtiyoriy diqqatni, qiziqish uyg'otadigan, so'z yordamida yoki qo'llab-quvvatlash orqali boshqarish mumkin. Odamning diqqatini biror narsaga qaratish uchun, uning qiziqishini qo'llab - quvvatlash kifoya qiladi. So'z orqali o'z-o'zini yo'naltirish yoki verbal o'zi-o'zini boshqarish har doim to'g'ridan- to'g'ri yoki bevosita qiziqishga asoslanadi. Ayrim hollarda o'zini majbur qilib qandaydir obyekt, holat yoki voqelikning qiziqarli tomonlariga e'tiborni qaratish, diqqatni uzoq bo'lмаган vaqt oralig'ida jalb qilish uchun yetarli bo'ladi. Qabul qilish orqali ham ularni ma'lum darajada boshqarish mumkin. Pedagog uchun eslash qobiliyatini boshqarish bir muncha qiyinroq va zarurroqdir. Uchtadan ikkita bizga ma'lum eslash jarayoni – eslab qolish va olingan axborotni qayta tiklashni – o'z- o'zini boshqarish bilan rivojlantirish mumkin. Eslab qolish jarayonining uchinchisi – axborotni saqlab qolishni boshqarish mushkulroqdir, chunki u ong osti holati (shaxs tomonidan anglab olinmaydigan psixik va holatlar yig'indisi) darajasida ishlaydi holbuki yodlashni

anglab tashkil etib, bevosita ularni ham boshqarish mumkin. Mnemik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish har xil usullarga asoslanadi, tasavvur assotsiatsiyalaniib bir butunga bog'lab, ongli ravishda ko'rib chiqiladi. Eslab qolish zarur bo'lgan narsalar ko'z orqali ko'rilsa, yoki biror narsa bog'lab tasavvur qilinsa yodda qolishi kuchayadi. Eslab qolishni tezlatish uchun sun'iy ravishda yodda bo'lgan perceptiv obrazlarni va tashqi narsalarni tafakkurda uyg'otib, ong orqali ularni yangi eslab qolishi kerak bo'lgan narsalar bilan bog'lash lozim. Ongli ravishda fikrlashni ham boshqarish, uni yanada samaraliroq qilish mumkin.

## NATIJALAR

Tafakkurni o'z- o'zida boshqarishning asosiy usullari quyidagilardir [5]:

- hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa shartlarni diqqat bilan tahlil qilish;
- talab qilingan natijani berilgan shartlar bilan solishtirish, bunday maqsad kerakli natijani olish uchun yetishmagan narsani aniqlash;
- doimiy ravishda mashq o'tkazib borib, tafakkurni chiniqtirish;
- tafakkurni aniq yo'nalishdagi mashqlar bilan chiniqtirish, ya'ni ketma-ket izlanish va yetarli darajada hal qilinishning alternativ yo'llarni ko'rib chiqish (bu – vosita anglash jarayoni "sikllanish" deb nomlanadi)
- vazifani hal qilishning yo'llari bilan bog'liq bo'lgan aniq farazlarni o'z ichida yoki ovoz chiqarib so'zlash (gapirish).

## XULOSA VA MUNOZARA

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda.

Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. Endilikda oliy ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonni emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish

mahoratiga ega, o’zini-o’zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi qo’yilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2013.
2. [www.lex.ru](http://www.lex.ru)
3. [www.lib.ru](http://www.lib.ru)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. Muslimov N.A. Bo’lajak kasb ta’limi pedagoglarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2014.
6. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 2016.
7. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.